

TASAVVUF TA'LIMOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Davronov Ziyot Davronovich.*F.f.d., professor.***Salimov Baxriddin Lutfullaevich.***TDTr.U dotsenti.***Xaitov Xudoyor Eshnazar o'g'li.***TDTr.U talabasi.*

Annotatsiya: *Tasavvuf ilmi yoki so'fiylik diniy oqimi VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Dastlab so'fiylar shaxsiy istakdan to'la voz kechish g'oyasini targ'ib qilganlar. Tasavvuf musulmon mamlakatlaridagi ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. Unda neoplatonizm ta'limoti, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizmni ta'siri bor.*

Kalit so'zlar: *Islom, tasavvuf, so'fiylik, axloqiylik, ta'limot.*

Abstract: *The science of Sufism or the religious movement of Sufism arose in the 8th century in Arab countries. At first, Sufis promoted the idea of complete renunciation of personal desire. Sufism arose in connection with the characteristics of social development in Muslim countries. It is influenced by Neoplatonism, Judaism, Christianity, Zoroastrianism and especially Buddhism.*

Key words: *Islam, Sufism, Sufism, morality, teaching.*

Tasavvuf ilmi yoki so'fiylik diniy oqimi VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Dastlab so'fiylar shaxsiy istakdan to'la voz kechish g'oyasini targ'ib qilganlar. Tasavvuf musulmon mamlakatlaridagi ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. Unda neoplatonizm ta'limoti, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa buddizmni ta'siri bor. Tasavvuf tarafdorlari axloqiy jarayonlarni targ'ib qilib xudoga yaqin bo'lishni asosiy maqsad qilib qo'yganlar. Shaxsiy manfaat xislatlardan voz kechishni targ'ib qilganlar. Tasavvuf ham xilma-xil shakl va oqimlarga ega. Tasavvufni asosiy maqsadi, ob'ekti inson va xudo.

Tasavvufda inson 4 ta bosqich orqali kamolatga erishadi. Birinchi shariat qonunlaridir. Shariat qonunlariga barcha musulmonlar bo'ysunishi kerak. Faqat shundan so'ng ikkinchi bosqich- tariqatga ko'tariladi. Bunda muridlar o'z pirlariga itoat qilishi, o'z shaxsiy shakllaridan voz kechishi shart hisoblangan. Bu bosqichdan o'tganlar uchinchi bosqichga – ma'rifatga ko'tariladi. Bunda koinotni birligi xudoda mujassam bo'lishini, yaxshilik va

yomonlikni nisbiyligini aql bilan emas, balki qalb bilan anglashi kerak, deb talqin qilinadi. To‘rtinchi bosqich haqiqat. Tasavvufda haqiqatga erishuv so‘fiylikni «Shaxs sifatida tugatib» xudoga singib va natijada abadiylikka erishishi deb qayd etilgan. Bunga tasavvufchilar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar (psixofizik) sig‘inish va ibratlar orqali erishadi, ular haqiqiy boylik bu- moddiylik emas, balki ma’naviylikdir deyдилar. /azzoliy tasavvufni islom dini bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta’limot sifatida tan olishga yo‘l ochgan. Movoraunnahrda tasavvufchilardan Yusuf Hamadoni tariqati (XII asr)dan boshlangan. Undan boshqalari Abdu Xoliq /ijduvoni va Ahmad Yassaviy tariqatlaridir. XIII- XIV asrda Naqshband tariqatlari yuzaga kelgan. Ular ta’sirida Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vali ta’limotlari ham paydo bo‘lgan. Sobiq Ittifoq davrida bu ta’limotlarni reaksiya ta’limot, deb taqiqlaganlar. Sababi bu ta’limot insonlarni jamiyat hayotidan chetga tortadi, qizg‘in faoliyatni so‘ndiradi deb tushuntirilgan.

Tasavvuf ta’limotida Ahmad Yassaviy ta’limoti muhim ahamiyatga ega. Yassaviy buyuk shayx sifatida musulmonlar o‘rtasida e’tibor qozongan. Rivoyatlarga ko‘ra Ahmad Yassaviy payg‘ambardan ortiq umr ko‘rishni gunoh deb bilib, 63 yoshida yer to‘laga – chillaxonga kirgan. Umrining oxirini shu chillaxonda o‘tkazgan. Mavlono Xusomiddin Sig‘noqiyning risolasida Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko‘rgan, deb ma’lumot beriladi. Ahmad Yassaviyning she’rlar to‘plami «Devoni hikmat» deb yuritiladi. «Devoni hikmat»ning yetakchi g‘oyasi din va tasavvufdir. Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalarini va urf-odatlarining yig‘indisi bo‘lgan «shariat»ni, tasavvuf mohiyati bo‘lgan «tariqat»ni, ishqi-ilohiyini-«ma’rifat»ni, xudo va unga erishmoqni-«haqiqat»ni targ‘ib qilgan. «Devoni hikmat»da «Ey darvesh, bilgil va ogoh bo‘lg‘ilkim, avval kalimai shariat, ikkinchi kalimai tariqat, uchinchi kalimai ma’rifat, to‘rtinchi kalimai haqiqatni bilmoq kerak. So‘fi bo‘lib bu kalimalarni bilmasa so‘fi emas» - deyiladi. Ahmad Yassaviyning hikmatlarida diniy olamga g‘arq bo‘lish bilan birga tarki dunyochilik birlashib ketgan. Zolimlar qoralangan, kambag‘allar faoliyati yaxshilik bilan bog‘langan. Uning falsafasida insonlarni yaxshilikka chorlash, boylikka berilmaslik, mansabni suiste’mol qilmaslik g‘oyalari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Tasavvuf falsafasi Abduholiq /ijduvoni ta’limotida ham rivojlantirildi. Uning vasiyatnomasida jamoatga mulozim bo‘lish unga xizmat qilish muqaddas vazifa ekanligi uqtirildi. Ollohga yaqinlashishning yo‘li shudir, deb ko‘rsatadi u. Shu bilan birga insonlarni chillaxonada hadeb o‘ltiravermaslik, Ollohga toat-ibodat haddan tashqari oshirib yubormasligi ta’kidlanadi. Mehnat qilishga chorlandi. Halol yashashga chaqiriladi. Uning falsafasi Yassaviy ta’limotidan ilg‘orroq edi.

Tasavvuf falsafasining yirik siymalaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145-1221) dir. Tasavvufdagi Kubroviya tariqati Kubro tomonidan yaratilgan. U yirik olim sifatida

«Jamolning muattarlari va kamolotning egalari», «O‘nta qonun va qoidalar» nomli asarlarning muallifidir. Najmiddin Kubro falsafasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari mujassamlashgan. Shaxsiy faoliyati bilan mazkur sohalarda namuna ko‘rsatgan.

Tasavvuf falsafasi XIV Bahouddin Naqshband tomonidan rivojlantirildi. Uning ta’limoti suluk naqshbandiya, deb ataladi. Naqshband so‘zi taxallus so‘z bo‘lib, aynan ma’nosi matoga gul - naqsh solishni bildiradi. Naqshband kishilar hayotida hilvatchilik, tarki dunyochilik bilan hayot kechirishini xulosa qilmaydi balki bu dunyoda shod va xurram yashash kerak, deb targ‘ib qiladi. Ammo bu holat kelajakni, xudoni esdan chiqarishga olib kelmasligi lozim. Uning ta’limotida «kishi zohirda odamlar bilan, botinda (ichdan) esa xudo bilan bo‘lishi kerak» degan fikr yotadi. Uning falsafasi insonlarni o‘z qo‘li bilan, mehnati bilan, mehnat orqali keladigan daromad bilan kun kechirish, tirikchilik qilish sohasini yoritib beradi.

Islom dini singari tasavvuf ta’limotining asosichlari ham insonlarni yaxshilikka, hur va farovon hayot kechirishga tinchlikni barqaror bo‘lishiga undaydilar. Bu ta’limotlar Vatanimiz hududidagi insonlarni diniy aqidalar orqali insofli bo‘lishga chaqirgan. Falsafani diniy nuqtai-nazaridan yuqori darajaga ko‘targan.

Shu sababli ham ilk o‘rta asrlardagi Vatanimiz madaniyatini Sharq va /arb sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi ulkandir. Turkistonda o‘tib ulg‘ayib ijod qilgan yuzlab, minglab olimlar, diniy ulamolar, shoirlar yaratgan asarlar dunyo xalqini bahramand qilib kelmoqda. Ayniqsa, diniy ta’limotlarni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan ulug‘ shayxlar, avliyolar xizmatlari benihoyadir. Hozirgi vaqtda ham ulug‘ allomalarimizning ta’limotlarini hayotga tatbiq etish davom etmoqda. Jumladan, «Alloh qalbimizda , yuragimizda» deb nomlangan tamoil O‘rta asrlar diniy faoliyatining davomi desak, xato bo‘lmaydi. Bu tamoyilda hozirgi zamon o‘zbek xalqlarining urf-odatlarini, ilohiyotga bo‘lgan munosabatlari o‘z aksini topgan. Zamonaviy bilimlar bilan birga diniy bilimlar haqida xulosalar chiqarilgan. Uni tahlil qilgan yoshlar diniy e’tiqodlarning muqaddas ekanligini sezgan holda o‘zlarida mujassamlashtiradilar.

Nizomiy, Navoiy, Hofiz, Jomiy kabi allomalarimiz ham ilmiy tasavvuf bilan bog‘laganlar.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.